

Ta’limiy o‘yinlar vositasida boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning fonetik-grammatik tushunchalarini shakllantirish

**Baxtiyorova Mahliyo- UrDU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи
o‘qituvchisi**

Аннотация. В этой статье изучены пути использования обучающих игр на уроках родного языка в процессе формирования фонетико-грамматических понятий у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: начальное образование, фонетико-грамматическое понятие, обучающая игра, развитие речи, состав слова, эффективность образования.

Annotation. In this article authors research the ways of using learning games for enriching phonetic and grammar knowledge of elementary school pupils.

Key words: elementary education, phonetic and grammar knowledge, learning game, word composition, development of speech, effectiveness of education.

Ona tili mакtabda o‘quvchining kamol topishida, fikrlash darajasining o‘sishida, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda, ilmiy tushunchalarini, nutqiy malakalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tilidan olib boriladigan barcha mashg‘ulotlar tizimi shunday qurilishi kerakki, bu tizim o‘quvchilarda ona tiliga muhabbat, o‘z yurtiga, xalqiga mehr, Vataniga cheksiz hurmat va sadoqatni o‘stirishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limi, yuqorida ta’kidlanganiday, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrلay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani sifatida emas, balki butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qarash lozimligini alohida ta’kidlash joizdir.

Boshlang‘ich ta’lim davlat qonunini hayotga tatbiq etishda muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tili o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi. “Boshlang‘ich ta’limning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik kasb mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi barcha pedagogik -psixologik vositalarni qo‘llagan holda kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarda yaxlit tarzdagi o‘quv faoliyatini shakllantira olishi kerak”. (1.14)

Ona tili fani shunchaki fonetik-grafik va gramatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki o‘quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta’minlashi, ularda go‘zal nutq madaniyatini tarbiyalashi. Og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishi, fikr -mulohazalarini ifodali bayon etishga o‘rgatib borishi zarur. O‘quvchilar har bir ilmiy -nazariy tushunchani amalda qo‘llay olishlari uchun ona tili mashg‘ulotlarida samarali mashqlar tizimi qo‘llanib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Ona tili o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning savodini chiqarish, gramatik tushunchalarini shakllantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan usullar, mashqlar variantlari ko‘p. Fonetik-grammatik, orfografik tushunchalarni mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakllantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta’limiy o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. (2. 42)

Ta’limiy o‘yin mashqlari ma’lum talab asosida berilib, mavzu yuzasidan o‘quvchini amaliy faoliyatga yo‘naltira oladigan ta’limiy materialdir. Ular har bir mavzu doirasida shu mavzuni ongli o‘zlashtirish, mavzu yuzasidan o‘qituvchining

olgan bilimini mustahkamlash va sistemaga solish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini o‘stirish maqsadida beriladi.

Ta’limiy o‘yinlarning boshqa mashq turlari (ko‘chirib yozuv, tahlil, diktant, bayon, insho) dan farqi shuki, bunda, bir tomondan, o‘quvchilarning zerikishi, charchog‘iga barham berilsa, ikkinchi tomondan, bolalarning fikrlash jrayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakllanishi osonlashadi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu bo‘yicha muayyan shakldagi ta’limiy o‘yinni tashkil qilish mumkin. O‘qituvchi, avvalo, ta’limiy o‘yinning ta’limiy-tarbiyaviy maqsadini belgilab, o‘yinga kerakli materialni tayyorlab, o‘quvchilarga ta’limiy o‘yinni o‘tkazish tartibini aniq tushuntirib berishi, ta’limiy o‘yinni o‘zi boshqarib borishi, o‘quvchilarning xatolarini yo‘l-yo‘lakay tuzatib borishi kerak. O‘yin oxirida tegishli xulosalar chiqarib, qo‘yilgan ballar e’lon qilinadi.

Ta’limiy o‘yinning asosiy mohiyati shundaki, kattalar tomonidan bolalarga o‘yin shaklida aqliy vazifani bajarishni hal etish vazifasi topshiriladi. Buning asosiy maqsadi bolalarning bilishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishni faollashtirishidir. Bilim berishda ta’limiy o‘yinlardan bilimlarni mustahkamlashdagina emas, balki ta’lim shakli sifatida ham keng foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinflarda fonetikaga doir unli, undosh tovushlar va harflar mavzusini o‘rganishda quyidagi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1-o‘yin – “So‘z o‘yini”. Qaysi tovush yoki harf so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirishga xizmat qilyapti?

1-variant – og‘zaki ravishda. Bunda o‘qituvchi navbat bilan so‘zлarni og‘zaki ayta boshlaydi: o‘quvchilar qo‘l ko‘tarib so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirayotgan

tovushni aytishadi va ma’nosи o‘zgarayotgan so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda 2 guruhdan iborat o‘quvchilar musobaqa tarzida doskada yozilgan so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirayotgan harfning tagiga chizib borishadi.

Til, tin, tir, tiz, tim, tish, to‘l, to‘r, to‘n, to‘p, to‘y, to‘k, to‘s, tom, ton, tol, tosh, tob, tog‘, tor, toj, toy, tok, top, tot, tut.

2-o‘yin. “Harflarni o‘zgartirib, so‘z tuzing!”

1-variant – og‘zaki ravishda. Bunda o‘qituvchi so‘zni og‘zaki ayta boshlaydi: o‘quvchilar bir so‘z tarkibidagi unli yoki undosh tovushni o‘zgartirib yangi so‘z topishib, bu so‘zlar ishtirokida og‘zaki gaplar tuzadilar.

2-variant – yozma ravishda. Bunda doskaga so‘zlar qator qilib yozib qo‘yilgan bo‘ladi. 2 guruhdagi o‘quvchilar unli yoki undosh harflarni o‘zgartirib, yangi so‘zlar tuzib yozadilar. O‘yin musobaqa shaklida o‘tkaziladi.

Unlilarni o‘zgartirish.

Kun: ko‘n, kon.

Ko‘z: kuz, kar, kor, ker.

Dil: do‘l, dol.

Pichoq: pachoq, po‘choq, puchuq.

Undoshlarni o‘zgartirish.

Moy, toy, loy, boy, voy, joy, moy, soy, choy.

Til, dil, bil, jil, zil, yil, fil, shil, qil.

Bir harfni olib so‘z tuzish.

Qo‘y (o‘y)

Kalla (alla)

Toy (oy)

Karra (arra)

So‘zlarga harf qo‘shib yangi ma’noli so‘zlar toping vva ular ishtirokida gaplar tuzing:

Alla (salla)	ayiq (qayiq)
Ayron (hayron)	asal (kasal)

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe’l) bilan umumiy tanishtirilgandan so‘ng bar bir leksik-grammatik guruh alohida o‘rganiladi. Bu so‘z turkumlarini o‘rganishning boshlang‘ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Dasturga ko‘ra, boshlang‘ich sinfda so‘zlar dastlab javob bo‘ladigan morfologik so‘roqlariga qarab guruhlanadi, “so‘z turkumi” tushunchasi shakllantiriladi.

Grammatik tushunchalar bo‘yicha o‘quvchilar 1-sinfdan boshlab nazariy ma’lumotlarga ega bo‘la boshlaydilar. Ya’ni shaxs va narsa nomlari, narsalarning belgisi, narsalarning harakati kabi ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida ularda grammatik tushunchalar shakllantirishga asos solinadi.

Boshlang‘ich sinflarda grammatik tushunchalarga oid quyida ta’limiy o‘yinlardan samarali foydalanish mumkin.

Mavzu: Narsa va shaxs nomini bildirgan so‘zlar

1-o‘yin. “Bir so‘z bilan javob top” o‘yini

Beshik tebratib aytildigan qo‘shiq ... – alla.

Daraxtni bo‘laklarga ajratadigan asbob ...- arra.

Ko‘paytirish jadvali ... – karra.

Bolalar qog‘ozdan yasab uchiradigan narsa ...- varrak.

Kuch so‘zining sherigi ... – quvvat.

Rasm chizuvchi kasb egasi ... – rassom.

Don hosili ... – g‘alla.

Chollar tayanadigan tayoq ... – hassa.

2-o‘yin. “So‘zlarni guruhlarga ajratish” o‘yini.

1-variant. (og‘zaki ravishda)

O‘qituvchi so‘zlarni navbat bilan aytib turadi, o‘quvchilar nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni eshitganda sariq varaqani, kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni eshitganda ko‘k varaqani ko‘taradilar.

2-variant. (yozma ravishda)

So‘zlar yozilgan varaqalar alohida stolga aralashtirilgan holda ochiq qilib qo‘yiladi. O‘quvchilardan tuzilgan ikki guruhning biri nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni, ikkinchisi kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni “Kim oldin yozish” sharti bilan doskaga yozib boradilar.

Mavzu: Narsa va shaxs harakatini bildirgan so‘zlar

“Teskari so‘zni top!” o‘yini.

1-variant. (og‘zaki ravishda)

O‘yin uchun so‘zlar:

Suv: oqadi – to‘xtaydi.

Kun: isiydi – soviydi.

Qush: uchadi – qo‘nadi.

Daraxt: ko‘karadi – quriydi.

Bola: uxlaydi – uyg‘onadi.

Oy: ko‘rinadi – bekinadi.

Mavzu: Narsa va shaxs belgisini bildirgan so‘zlar

“Noto‘g‘ri belgini top!” o‘yini.

Qizil taom (shirin)

Oq qarg‘a (qora)

Shirin gul (qizil)

Mavzu: Ot – so‘z turkumi.



“So‘z zanjiri” o‘yini.

O‘yin tartibi: 5 – 6 ta o‘quvchi doska oldiga tiziladi. Boshlovchi o‘yin shartini tushuntiradi va narsa nomini bildirgan so‘zni aytadi, navbatdagi o‘quvchi bu so‘zing oxirgi tovushi bilan boshlanadigan otni aytadi. To‘xtalib qolgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Namuna: Ayiq – qarg‘a – asal – lola – ariq – qalam – maktab – bola – alla – arra – alam – mashina –adolat – tandir – ruchka – ayoz....

“So‘z tarkibi” ga oid mavzularni mustahkamlashda ham ta’limiy o‘yinlar samarador bo‘ladi. Xususan, “O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar” mavzusini o‘rganishda “O‘zakni top” o‘yini qo‘llanilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

O‘yin tartibi: Doskaga ikki ustunda o‘zakdosh so‘zlar yozilgan bo‘lib, ikki guruhda tizilgan o‘quvchilar musobaqa tarzida birin-ketin o‘zaklarni belgilaydilar. Shartni oldin bajargan guruh rag‘batlantiriladi.

O‘yin uchun so‘zlar:

Gulchi ishchi

Ishla guldon

“Tartibga sol” o‘yini.

O‘yin tartibi: Doskaga o‘zak va o‘zakdosh so‘zlar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar shu so‘zlarning ichidan o‘zak va o‘zakdosh so‘zlarni topib o‘zakni bir ustunga, o‘zakdosh so‘zlarni ikkinchi ustunga tartib bilan yozib chiqadilar. Sharhni to‘g‘ri bajargan guruhi ragatlantiriladi.

O'yin uchun so'zlar: sinf, bosh, gul, do'st, ...

Namuna: o'zak o'zakdosh s o'zlar

sinf

sinfdosh

“So‘z yasovchi qo‘sishchalar” mavzusi o‘rganilganda esa quyidagi ta’limiy o‘yinlardan foydalanish mumkin.

“So‘z yasa” o‘yini

O‘yin tartibi: O‘yinda boshlovchi va 3-4 nafar o‘quvchi ishtirok etadi.

1-variant. Boshlovchi o‘zakni aytgach, o‘quvchilar navbati bilan so‘z yasaydilar.

2-variant. Boshlovchi har bir o‘quvchiga yasovchi qo‘srimchalardan birini aytadi, o‘quvchi mustaqil holda bu qo‘srimchaga mos o‘zakni qo‘shib so‘z yasaydi. So‘zlarni yasay olmagan o‘quvchi o‘rnini boshqa o‘quvchi egallaydi.

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ta’limiy o‘yinlardan fo‘ydalanish o‘rganilayotgan tushunchaning oson o‘zlashtirilishiga yordam beradi. O‘quvchilarda olgan bilimlarini amalda tezkorlik bilan qo‘llay olish salohiyatlarini shakllantiradi.

Ta’limiy o‘yinlarni tanlashda o‘yining ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashishiga, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning faolligi va tashabbuskorligi hamda ijodiy qobiliyatini o‘stirishga alohida ahamiyat beriladi.

Ta’limiy o‘yinlar nafaqat o‘quvchilarning bilimini tekshirishda, balki ularni darsga qiziqtirish uchun ham qo‘llanadi. Ta’limiy o‘yinlarni o‘tkazishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. O‘yinlar mavzuga mos bo‘lishi va o‘quvchilarni zeriktirib qo‘ymasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi// “Boshlang‘ich ta’lim, 1998 -yil, 6 –son.
2. Yoqubov Sh.Mustafoqulov.R Grammatik o‘yinlar orqali o‘quvchilarni faollashtirish// Yigirma birinchi asrda o‘zbek tili ta’limi masalalari.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2007.